

O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI

*Fan va texnologiyalar universiteti
Pedagogika fakulteti 1/24-guruh
talabasi **Abduxamidova Shohista***

Annotatsiya; Ushbu maqolada ayni kunda abituriyentlar uchun dolzart bo'lib kelayotgan mavzulardan biri, xususiy universitetlar litsenziyalari bekor qilinayotgani, bunga turtki bo'lgan omillar va o'sha OTM muassasalarining talabalari haqida gap boradi.

Annotatsiya; В этой статье речь идет о текущей актуальной теме для абитуриентов, связанной с отменой лицензий у частных университетов, причинах этого явления и студентах тех учебных заведений.

Kalit so'zlar; OTM(o'liy ta'lim muassasasi), xususiy universitetlar, litsenziya, abituriyentlar, talabalar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri.

Kalit so'zlar; ВУЗ (высшее учебное заведение), частные университеты, лицензия, абитуриенты, студенты, высшее образование, министр науки и инноваций.

Hozirgi kunda ta'limga bolagan extiyoj kundan kunga oshib bormoqda, ayniqsa, universitetlar yani oliy ta'lim muassasalariga talab va extiyoj katta, shu boisdan ham xususiy universitetlar ko'payib bormoqda, ammo bu xususiy universitetlarga ishonsa bolarmikan? Masalaning bu tomoni ham bor. Ayni kunlar yutimizda xususiy OTMlar o'z litsenzyalaridan maxrum qilinmoqda axir. Agar abituriyentlar xususiy OTMlarga o'qishga kirsalar va o'qiyotgan universitet litsenziyasidan maxrum bo'lsa o'sha OTM talabari nima qilishdi? Ularning kelajaklari nima bo'ladi? Axir gap inson hayoti haqida ketmoqda. Bu savollar xali hamon javobsiz qolmoqda, ammo shunga qaramay yurtimizda xususiy OTMlari ko'payib bormoqda. Shu sababdan ham ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston oliy ta'lim vazirligi xususiy universitetlarga litsenziya berishni to'xtatdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Kongratbay Sharipov xususiy universitetlarga litsenziya berish to'xtatilganini (so'nggi bor 2023-yil oktabrda berilgan) aytib, buni ta'lim sifati va ishsizlik bilan bog'ladi. Vazirlik bunday litsenziya berishni takomillashtirish bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqmoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Kongratbay Sharipov O'zbekistonda xususiy universitetlarga litsenziya berish to'xtatilganini ma'lum qildi. Bu haqda u YouTube'dagi "Lolazor" loyihasida bo'lgan suhbat davomida aytib o'tdi. Vazir ko'plab talabalar chet elga o'qishga ketishi fonida xususiy universitetlar balansni ushlab turganini ta'kidladi.

“Biz xususiy universitet ochmaymiz desak, talabalar chet elga ketadi. Hozirning o‘zida shuncha xususiy OTM ochilganidan keyin ham 110 ming talaba chetda o‘qiyapti. Ularning soni 500 ming ham bo‘lishi mumkin edi... Bir tomondan, xususiy universitetlar balansni ushlab turibdi, deb o‘ylayman”, — dedi u.

“Lekin xususiy ekan deb buni ochaversak, u esa yetarli ta’lim sifatini bermasa, bu yaxshi emas. Oxirida chiqqan kadr yana ishsiz qolib ketadi. Jamiyatda ishsiz oliy ma’lumotlilar ko‘payib ketishi mumkin. Hozir xususiy universitetlarga litsenziya berish to‘xtatildi. Bor universitetlar bilan ta’lim nuqtai nazaridan ishlanmoqda”, — deydi vazir.

Uning so‘zlariga ko‘ra, hozirda mamlakatdagi xususiy OTMlar soni 67 tani tashkil etadi, ularda qator tekshiruvlardan o‘tkazilyapti.

“Qaysisida salohiyat yetmayotgan yoki hajm nuqtai nazaridan muammolari bo‘lsa, ularga to‘g‘rilash haqida xat berilyapti. Shuni to‘g‘rilashgach, faoliyatiga xalaqit qilinmay, ishini davom ettiryapti. Unga javob bermaydiganlar sudga berilyapti. Agar sud jarayonida ular o‘zlarini oqlasa, litsenziyasi saqlab qolinyapti. Talabga javob bermasa, yopish bo‘yicha qaror chiqarilyapti”, — dedi vazir.

Shuningdek, oliy ta’lim tizimi mas’uli xususiy universitetlarning yopilishi tarafdori emasligini ham qo‘shimcha qildi.

“Men xususiy universitetlar tarafdoriman. Ularni yopish kerak, degan tarafda emasman. Shu paytgacha bo‘lgan OTMlarning ichini inventarizatsiya qilib ko‘raylik. Yaxshi ishlab turganlariga hech qanday cheklov yo‘q. Ularga qo‘shimcha yo‘nalishlar so‘rashsa ham beryapmiz”, — dedi u.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Gazeta.uz”ga ma’lum qilishicha, mamlakatda oxirgi bor 2023-yilning oktabr oyida xususiy OTMga faoliyat uchun litsenziya berilgan.

Vazirning ta’kidlashicha, hozirda xususiy universitetlarga litsenziya berish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqilmoqda. Yaqinda hujjat e’lon qilinishi kutilmoqda. Vazirlik “Gazeta.uz”ga ayni damda ham xususiy OTM ochish uchun litsenziya so‘rab murojaat qilish imkoni borligini bildirdi.

2024-yilning fevral oyida vazirlik litsenziyasi bekor qilingan xususiy OTMlarning talabalari o‘qishni boshqa universitetga ko‘chirishi mumkinligini malum qiladi. Deya yozadi “Gazeta.uz”. Shuningdek, Litsenziyasi bekor qilingan xususiy OTMlarning biron-bir talabasi ko‘chada qolmaydi — vazirlik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi litsenziyasi bekor qilingan xususiy OTMlarning talabalari o‘qishni boshqa universitetga ko‘chirishi mumkinligini ma’lum qildi. Hozirgacha 5 ta xususiy universitetning litsenziyasi bekor qilingan, 1 tasining litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha sud jarayoni davom etmoqda. 8-fevral kuni Kun.uz “Xususiy OTMning litsenziyasi to‘xtatilsa, undagi talabalar nima qiladi?” elon qildi. Unda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ushbu jarayonga bog‘liq qator savollar bilan yuzlangan.

Vazirlik litsenziyasi bekor qilingan xususiy OTMlarning talabalari o'qishni boshqa universitetga ko'chirishi mumkinligini ma'lum qildi.

Vazirlikning qayd etishicha, hozirga qadar litsenziya talablari va shartlarini qo'pol ravishda buzgani uchun 6 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotining tegishli litsenziyasini bekor qilish bo'yicha sudga davo arizalari kiritilgan. Shundan 5 tasining tegishli litsenziyalari sud qaroriga ko'ra bekor qilingan bo'lsa, 1 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotining litsenziyasini bekor qilish bo'yicha sud jarayoni davom etmoqda.

2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarorga ko'ra litsenziyasi bekor qilingan ta'lim tashkiloti yoki yopilgan ta'lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish huquqi vazirlikka berilgan.

Cud jarayonlari to'liq yakunlangan va litsenziyasi bekor qilingan oliy ta'lim tashkilotlari — Valley Innovative University, Urganch shahridagi Binary universitetining barcha talabalari tegishli tartibda oliy ta'lim tashkilotlariga ko'chirilgan. “Hozirda litsenziyasi bekor qilingan boshqa oliy ta'lim tashkilotlarining talabalarini o'qishini ko'chirish ishlari tashkil etilmoqda” — deyiladi vazirlik xabarida.

“Vazirlik litsenziyasi bekor qilingan oliy ta'lim tashkilotlaining biron-bir talabasi ko'chada qolmasligini ma'lum qiladi. Barcha talabalarining arizasiga asosan o'qishi belgilangan tartibda boshqa oliygohlarga ko'chirilishi ta'minlanadi”, — deyiladi xabarda.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/>
2. Talim Yangiliklari | OLIY TA'LIM VAZIRLIGI t.me/Talim_Vazirligi
3. Kun.uz <https://kun.uz/>